



ABUL MUIN NASAFIY ASARLARIDA RADDIYA BERISH USLUBLARI

Mohinabonu Fozilova

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasida 2-kurs magistranti

Tel: +99897 714 15 85

mohinabonu1585@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15424319>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-May 2025 yil

Ma'qullandi: 10-May 2025 yil

Nashr qilindi: 15-May 2025 yil

KEYWORDS

Abul Muin Nasafiy, ilmi kalom, radiya uslubi, ilohiy sifatlar, bid'at ahli, Tabsiratul adilla, Bahrul kalom, moturidiylik, dalillash, aqidaparastlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada atoqli moturidiylik ta'limoti olimi Abul Muin Nasafiy qalamiga mansub asarlarda, xususan "Tabsiratul adilla" va "Bahrul kalom" nomli risolalarida keltirilgan raddiya uslublari tahlil qilinadi. Muallifning kalom ilmida bid'at ahliga, g'ayri islomiy falsafiy maktablarga va turli noan'anaviy oqimlarga nisbatan tutgan pozitsiyasi, raddiya qilishda foydalanilgan dalillari (aqliy va naqliy asoslari) ilmiy asosda tahlil etiladi. Uning raddiya berishdagi mulohazakorlik bilan yondashgani, ammo ilmiy qat'iyatni saqlagan holda ularga e'tiroz bildirgani yoritib beriladi. Maqolada Nasafiy asarlaridagi uning o'ziga xos jumalari, so'z o'yinlari, daliliy tazkiyalari va raddiyaviy uslublaridan namunalari berilib, ularning bugungi teologik bahslar uchun dolzarbligi ko'rsatib o'tiladi.

Abul Muin Nasafiy Movarounnahrda moturidiylik aqidasi yetakchi himoyachisi sifatida XI-XII asrlarda noan'anaviy oqimlarga qarshi faol ilmiy kurash olib bordi. Uning faoliyati Qoraxoniylar hukmronligi va Saljuqiylar ta'siri ostidagi Movarounnahrda, xususan Nasaf, Samarqand va Buxoro kabi ilmiy markazlarda kechdi. Bu davrda ismoiliylar, qarmatiylar, mo'tazilalar va jahmiylar, xavorijlar, shialar, karromiylar, qadariylar, murjialar kabi noan'anaviy oqimlar diniy va ijtimoiy masalalarda o'z talqinlarini ilgari surib, hanafiy-moturidiy ta'limotining barqarorligiga xavf tug'dirdi.

Abul Muin Nasafiy o'zining "Tabsiratul adilla", "Bahrul kalom" va "Tamhid lil qovaidud tavid" kabi asarlari orqali ushbu oqimlarga qarshi mantiqiy, dalilli va tizimli raddiyalar berdi. Uning uslubi nafaqat ilmiy teranligi, balki mintaqa xalqining ijtimoiy-diniy muhitiga moslashganligi bilan ajralib turdi. Nasafiyning noan'anaviy oqimlarga qarshi kurashdagi raddiya uslublari nafaqat o'z davrida samarali bo'lgan, balki keyingi mutakallimlar uchun ham namuna bo'lib xizmat qilgan. Ushbu bo'limda Nasafiy raddiyalarining asosiy uslublari tahlil qilinadi, har bir oqimning muhim masalalar bo'yicha fikrlari va ularga qarshi Nasafiy dalillari misollar bilan yoritiladi.

Abul Muin Nasafiy o'z raddiyalarida quyidagi o'ziga xos uslublarni qo'llagan:

Mantiqiy va tizimli yondashuv: Nasafiy oqimlarning aqidalarini tahlil qilib, ularni mantiqiy jihatdan rad etishga urg'u berdi. U o'z asarlarida masalalarni tabaqalarga ajratib, har birini alohida ko'rib chiqdi.

Qur'on va hadisga asoslanish: Nasafiy har bir dalilini Qur'on oyatlari va sahih hadislar bilan mustahkamladi, ammo aql va mantiqni ham muvozanatli tarzda qo'lladi, bu uni mo'taziladan farqlantirdi.

Mahalliy holatga moslashuv: Movarounnahr xalqining diniy va ijtimoiy muhitini hisobga olgan holda, oddiy xalqqa tushunarli tilda yozdi, lekin ilmiylikni yo'qotmadi.

Munozara va suhbat uslubi: Nasafiy ochiq munozaralarga tayyor edi va oqimlarni tanqid qilishda keskinlikdan ko'ra, ilmiy dalillarga tayanardi, bu uning ba'zi ash'ariy ulamolaridan farqli tarafi edi.

Abul Muin Nasafiy asarlarida ko'plab oqimlarga qarshi raddiyalar bergan bo'lib ulardan ba'zilari ismoiliylar, qarmatiylar, mo'tazilalar, jahmiylar, xorijiyalar, shialar, karromiylar, qadariylar, murjialar kabilardir. Ular haqida qisqacha quyida keltirib o'tiladi.

Ismoiliylar shia mazhabining botiniy (ichki) ta'limotini asos qilgan oqimdir. Ular Qur'onning har bir hukmiga ichki (botiniy) ma'no berib, zohiriy ma'nosidan uzoqlashishgan. Ismoiliylar, shuningdek, imomatni meros asosida olib borishga, ularni haqiqiy ma'naviy rahbarlar sifatida ko'rishga urg'u berishgan. Shuningdek, ular "Har bir shariat hukmining ichki, yashirin ma'nosi mavjud" deb ta'kidlaydilar. Bu oqimning g'oyalari Qur'onning zohiriy ko'rinishini inkor qiladi va faqat ichki, ma'naviy tushunchalarni afzal ko'radi.

Ismoiliylarning ta'limotiga ko'ra, ular nafaqat shariatni, balki bunday shariatning haqiqiy ma'nolarini tushunish zarurati haqida ham gapirishadi. Ismoiliylarning eng muhim o'ziga xosligi, ular faqat ruhiy va aqliy bilimlarni shakllantirib, zohiriy ibodatlarni qadrlashni inkor etishadi. Ularning fikricha, har bir ibodatning yashirin, yuqori ma'nolari mavjud, zohiriy ko'rinish esa faqat jismoniy emas, balki ruhiy maqsadga xizmat qiladi.

Nasafiy ismoiliylarning botiniy ta'limotlariga nisbatan qattiq tanqidlar bildirgan. Ular Qur'on va hadislarini noto'g'ri talqin qilishlarini va asliyatni chalkashtirishlarini tanqid qilgan.

Nasafiy, ismoiliylarning "shariat hukmlarining faqat ichki ma'nosi bor" degan fikrini rad etadi. U Qur'onning har bir amali to'g'ri va zohiriy amalga oshirilishi zarurligini ta'kidlab: "Agar shariat faqat ramziy ma'nolarga ega bo'lsa, dinning amaliy tomonini hech qanday ahamiyati bo'lmaydi"¹ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Bu yerda Nasafiy mantiqiy isbot usulidan foydalanib, dinning amaliy mohiyatini muhokama qiladi va shariatning zohiriylikni inkor etishni chalkash deb biladi.

Ismoiliylar imomatni nasab (meros) orqali davom ettirishni talab qiladi. Nasafiy buni rad etadi va imomatning haqiqiylikini faqat diniy ilmlarga ega bo'lgan shaxslar belgilashi kerakligini aytadi. Nasafiy: "Imomat faqat aql va ilmga asoslanishi kerak, nasabga bog'lanishi lozim emas. Shuningdek, imomlar to'g'ri aqidaga ega bo'lishi zarur"² deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy bu fikrida ismoiliylarning meros asosidagi imomatni rad etib, ilmiy va aqliy tahlil orqali haqiqiy rahbarlarning ilmiga urg'u beradi.

Ismoiliylar, Allohning sifatlarini faqat botiniy ma'nolarda talqin qilishadi, Nasafiy esa Allohning sifatlarini zohiriy va haqiqiy shaklda tushunishni muhim deb biladi. Nasafiy: "Agar Allohning sifatlarini faqat botiniy talqinlar orqali tushunsak, unda uning yuksakligini tasavvur qilish juda qiyin bo'ladi"³ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy bu raddiya orqali aqliy dalillar va tafsiriy an'analar asosida ismoiliylarning ilohiy sifatlarni noto'g'ri tushunishlarini inkor etadi.

Qarmatiylar islom tarixida muhim o'rin tutgan, asosan, shialikning botiniylik ta'limotlariga asoslangan va o'zini alohida mazhab sifatida namoyon qilgan bir guruhdir. Ular o'z e'tiqodida musulmonlarning jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy tizimini inkor qilishgan va markaziy hokimiyatga qarshi chiqqanlar. Qarmatiylar, shuningdek, "hajni inkor qilish" va "masjidlarni tahqirlash" kabi ekstremistik qarashlari bilan mashhurdir. Ularning asosiy g'oyalardan biri, dinning tashqi (zohiriy) amallari, masalan, ibodatlar, to'g'ri va maqsadga muvofiq bo'lmasligini ta'kidlash edi.

Qarmatiylar "haj"ni muqaddas ibodat emas, balki faqat ijtimoiy va siyosiy vosita sifatida ko'rishgan. Ular, shuningdek, islomning asosiy ustunlarini inkor etib, ularni faqat o'zlarining maqsadlariga xizmat qiladigan tarzda talqin qilishgan.

Nasafiy qarmatiylarning e'tiqodini va ularning ibodatlarini inkor etishlarini qattiq tanqid qiladi. Masalan haj ibodatini inkor qilishda qarmatiylar haj ibodatini faqat siyosiy maqsadlar uchun qilingan bir harakat sifatida qarashgan, Nasafiy esa bu qarashni rad etadi va hajni islomning muhim ibodati deb e'tirof etadi. Nasafiy: "Haj, Allohning buyurgan amali bo'lib, uni inkor qilish musulmonlikni inkor qilishdir"⁴ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy, bu fikrida qarmatiylarning asossiz da'volariga qarshi naqliy dalil keltiradi, hajning muqaddasligini Qur'on va hadisga asoslanib isbotlaydi.

Masjidlar borasida qarmatiylar ularni muqaddas joylar emas, balki o'zlarining siyosiy kurashlarining joyi sifatida ko'rishgan. Nasafiy, bu fikrni qat'iy rad etadi va masjidlarini Allohning uylaridan biri deb e'tirof etadi. Uning fikri: "Masjidlar – bu Allohning uylaridir va ularni tahqirlash Allohning buyruqlarini rad etishdir"⁵ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy, masjidlarini hurmat qilish zarurligini isbotlash uchun naqliy dalil keltiradi va qarmatiylarga qarshi diniy asoslarni taqdim etadi.

Qarmatiylar musulmon jamiyatida mavjud bo'lgan diniy ijtimoiy tizimni, hukumatni va jamiyatni inkor qilganlar. Nasafiy, bu fikrni rad etadi va islomda barcha jamiyat a'zolarining bir-biriga hurmat ko'rsatishi zarurligini ta'kidlab: "Islomda jamiyatdagi tartib va adolat, imom va hokimlarning faoliyatiga asoslanadi. Bu tizimni inkor qilish musulmon jamiyatining asosini yo'qotadi"⁶ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy, mantiqiy isbotlar va diniy qoidalarga asoslanib, ijtimoiy tizimni saqlab qolishning zarurligini ko'rsatadi.

Mo'tazilalar islom tarixidagi eng mashhur oqimlaridan biri. Ular aqlni din asoslaridan ustun qo'ygan, Allohning sifatlarini o'ziga xos tarzda talqin qilgan va ba'zi aqidaviy masalalarda odatdagidan farq qiluvchi fikrlarni ilgari surgan. Ularning asosiy aqidalari: Allohning sifatlari mavjud emas, sifatlardan pok. Qur'on yaratilgan (maxluq) hisoblanadi. Gunohkor kishi (kabira sohibi) imon va kufr o'rtasida oraliq maqomda (al-manzilatu bayna al-manzilatayn) turadi. Inson o'z amallari ustidan to'liq hukmron, irodasi to'liq erkin. Qiyomatda adolatli jazolash va mukofotlash qat'iy shart.

Nasafiy mo'tazilalarning asosiy e'tiqodiy xatolarini naqliy va aqliy asosda rad qilgan. Masalan mo'tazilalar Allohning sifatlarini inkor etganlar, ya'ni Alloh ilmsiz biladi, qudratsiz

yaratadi, deb iddao qilganlar. Nasafiy esa bunday tasavvurni rad etib: "Allohning ilmi, qudrati, hayoti va boshqa sifatlari mavjud va abadiydir. Ularning inkori Allohning kamolotiga nuqson yetkazadi"⁷ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy Qur'on oyatlari asosida sifatlarni isbotlaydi: "U hamma narsani yaxshi bilguvchidir"⁸ (An'om surasi, 101-oyat).

Mo'tazilalarning Qur'on maxluq degan fikrini Nasafiy qat'iy rad etib: "Qur'on Allohning qadimiy kalomidir. Agar Qur'on yaratilgan bo'lsa, u holda Allohning ilmi ham yaratilgan bo'lishi lozim bo'ladi, bu esa kufrdir"⁹ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy Qur'onda Alloh o'z kalomi sifatida tanishtirgan oyoatlarni dalil qiladi.

Mo'tazilalar katta gunoh sodir etgan odamni mo'min ham, kofir ham emas, deb, uni oraliq maqomga qo'yadilar. Nasafiy esa ularning bu g'oyasini Qur'on va hadis asosida inkor qiladi: "Katta gunoh sodir etgan kishi hali musulmondur. Agar tavba qilsa, gunohi kechiriladi, aks holda Alloh irodasiga ko'ra jazolanadi yoki kechiriladi"¹⁰ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Qur'ondagi "Albatta, Alloh O'ziga shirk keltirilishini kechirmas. Undan boshqa gunohni, kim xohlasa kechiradi."¹¹ (Niso surasi, 48-oyat) oyatini asos qiladi.

Mo'tazilalar inson o'z amallarining to'liq yaratuvchisi, deb bilganlar. Nasafiy bu fikrni ham rad etib: "Inson ixtiyor egasi, biroq uning kuchi va qudrati Alloh tomonidan yaratilgan. Bandaning ixtiyori mutlaq emas, Allohning iroda va qudrati doirasidadir"¹² deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy Qur'ondan "Olamlarning Robbi Alloh xohlamasa xohlay olmassizlar"¹³ (Takvir surasi, 29-oyat) oyatini hujjat sifatida keltiradi.

Karromiylar Abu Abdulloh Muhammad ibn Karrom (vaf. 859 y.) asos solgan oqim bo'lib, ular islom aqidalarida ko'plab bid'at va noan'anaviy fikrlarni ilgari surganlar. Ularning qarashlari, ayniqsa Allohning sifatlari va vujudining jihati haqida o'ziga xos bo'lgan. Karromiylarning asosiy aqidalari: Alloh moddiy jihatdan mavjud va Arsh ustida jismoniy tarzda joylashgan. Iymon faqat til bilan iqrar qilishdan iborat, qalb tasdig'iga ehtiyoj yo'q. Amallarga haddan tashqari ahamiyat berish va zohiriy ko'rinishga e'tibor kuchli.

Nasafiy Karromiylarning aqidaviy xatolarini Qur'on, hadis va aqliy dalillar bilan rad qiladi.

Karromiylar Allohni jism deb tasvirlab, Uni ma'lum joyga mansub qilishgan. Nasafiy bunday e'tiqodning kufrga olib borishini ta'kidlab: "Alloh jism emas va makonga muhtoj emas. U zamondan, makondan va sifatlar chegarasidan pokdir"¹⁴ deydi

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy Qur'ondagi "U Zotga o'xshash hech narsa yo'qdir"¹⁵ (Shuuro surasi, 11-oyat) oyatini asos qilib oladi.

Karromiylarning “iymon faqat til bilan aytishdan iborat” degan g’oyasini Nasafiy rad etib: “Iymonning mohiyati qalbdagi tasdiq va til bilan iqror qilishdan iboratdir. Faqat til bilan aytish iymonni to’liq hosil qilmaydi”¹⁶ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy iymonning asosi qalbdagi e’tiqodda ekanini Qur’on va hadislar bilan isbotlaydi.

Nasafiy Allohni makon va jihatdan pok deb biladi va buni karromiylarning xatosi sifatida ko’rsatib: “Makonga ehtiyoj mavjudotlarning sifati. Alloh esa mavjudotlarga o’xshamaydi. U zamon va makon chegaralaridan yuksakdir”¹⁷ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Qur’ondan “U avval, oxir, oshkor va pinhondir”¹⁸ (Hadid surasi, 3-oyat) oyatini dalil sifatida keltiradi.

Karromiylar ko’pincha iymonni faqat ko’rinadigan amallar bilan bog’lashgan. Nasafiy esa iymon ichki tasdiq va ixlos bilan bo’lishi kerakligini ta’kidlab “Faqat zohiriy amal bilan iymon sodir bo’lmaydi. Amalni ko’rsatish mumkin, lekin qalbdagi iymon bo’lmasa, amal nafi tegmaydi”¹⁹ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy Qur’on va hadisdagi ixlosga oid naslarni asos qilib oladi.

Qadariylar islom tarixidagi qadimgi firqalardan biri bo’lib, ular insonning o’z amallarida to’liq mustaqil ekanini, Allohning qazo va qadari inson amallariga ta’sir qilmasligini ta’kidlaganlar. Qadariylarning asosiy aqidalari: Inson o’z amallarining yaratuvchisidir. Alloh bandaning amallarini iroda va taqdir qilmaydi. Yaxshilik va yomonlik faqat bandaning xohishi va ixtiyori bilan sodir bo’ladi. Nasafiy Qadariylarning bu qarashlarini Qur’on va aql asosida rad qiladi.

Qadariylar bandaning harakati ham, natijasi ham bandaning o’ziga tegishli, deyishgan. Nasafiy esa harakat ixtiyoran bandaga bog’liq, ammo yaratilishi Allohga mansubligini dalillar bilan ko’rsatadi²⁰: “Amallarni yaratish Allohning xos huquqidir. Banda ixtiyor qiladi, Alloh esa uning ixtiyoriga ko’ra amalni yaratadi”.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Qur’ondagi “Holbuki, sizni ham, qilgan narsalaringizni ham Alloh yaratgan-ku?”²¹ (Soffat surasi, 96-oyat) oyatini asos sifatida keltiradi.

Nasafiy ixtiyor va kuchning mavjudligini inkor etmaydi, lekin ularning yaratilishi Alloh tomonidan ekanini ta’kidlab: “Insonda ixtiyor va qudrat bor, lekin bu ixtiyor ham Allohning yaratishidir. Agar Alloh bu imkoniyatni bermasa, inson hech narsaga qodir bo’lmas edi”²² deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy aqliy dalil sifatida insonning o’z kuchidan tashqari holatlarga tobeligini (kasallik, qarilik, o’lim) misol qilib keltiradi.

Qadariylar taqdirni rad etgan bo’lsalar, Nasafiy taqdirga e’tiqod qilish imon shartlaridan biri ekanini ta’kidlab: “Taqdirga ishonish – imonning shartlaridandir. Rasululloh (s.a.v.) ham “taqdirning yaxshisiga ham, yomoniga ham imon keltirish”ni buyurganlar”²³ deydi

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Qur'on va hadisdan bo'lgan dalillarga tayangan holda (masalan, Qamar surasi, 49-oyat: "Albatta, Biz har narsani o'lchov bilan yaratdik"²⁴) o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Nasafiy qadariylarning "bandaning o'zi yaratuvchi" degan fikrini tanqid qiladi²⁵ va shunday deydi: "Alloh adolatlidir. Banda o'z ixtiyori bilan qilgan ishi uchun jazolanadi yoki mukofotlanadi. Biroq yaratilish va imkonni berish Allohning fazlidir"

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy bu yondashuvda bandaning ixtiyori bilan Allohning yaratishi o'rtasidagi nozik tafovutni o'rta qo'yadi.

Murjialar islom tarixidagi muhim firqalardan biri bo'lib, ular imonni faqat qalbdagi tasdiq va til bilan iqror deya ta'riflagan va amallarni iymondan ajratib ko'rganlar. Shuningdek ular katta gunoh sodir etgan musulmon imondan chiqmaydi. Amallar iymon darajasini oshirmaydi va kamaytirmaydi, kabi qarashlarga ega.

Nasafiy Murjialarning iymon va amal o'rtasidagi aloqani keskin ajratgan qarashlarini Qur'on va hadis asosida rad qiladi.

Murjialar amalni iymon tarkibiga kiritmaganlar. Nasafiy esa iymon ilm (bilim), tasdiq (qalb bilan) va amal (amaliy isbot)dan iboratligini ta'kidlab: "Iymon ilm, tasdiq va amalning jamlanishidan hosil bo'ladi. Amalni iymondan ajratish diniy asoslarga ziddir"²⁶ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Qur'ondagi "Iymon keltirgan va solih amallar qilganlarga, ular uchun ostidan anhorlar oqib turgan jannatlar borligining bashoratini ber"²⁷ (Baqara surasi, 25-oyat) oyatini dalil qiladi.

Murjialar katta gunoh iymonga hech ta'sir qilmaydi, deyishgan. Nasafiy esa bu fikrni to'g'rilab: "Katta gunoh iymonni butunlay bekor qilmaydi, biroq iymonning kamoliga zarar yetkazadi"²⁸ deydi

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy amallar va iymon o'rtasidagi aloqa Qur'on va hadislar bilan sobit ekanini ko'rsatadi.

Murjialar iymon ortmaydi va kamaymaydi, deb hisoblaganlar. Nasafiy esa iymon darajasining amallar bilan oshib-kamayishini isbot qilib:

"Mo'minlarning iymoni amallar va taqvo orqali ziyoda bo'ladi. Alloh Qur'onda ham: "...iymon keltirganlarning iymonini ziyoda qildi..."²⁹ (Tavba surasi, 124-oyat) deb xabar bergan"³⁰ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy Qur'ondagi aniq matnlar va sahii hadislar asosida dalillar keltiradi.

Murjialarning iymon va amalni to'liq ajratish fikrini Nasafiy qat'iy rad qilib: "Agar amal iymon bilan bog'liq bo'lmasa, Alloh amallarni mukofot va jazoga sabab qilmas edi. Bu esa Qur'on va sunnatga zid bo'ladi"³¹ deydi.

Ushbu raddiyadagi ilmiy uslub: Nasafiy Qur'ondagi mukofot va jazoni amallar bilan bog'lagan oyatlarga tayanadi.

Abul Muin Nasafiy shu va shu kabi oqimlarning noto'g'ri qarashlariga raddiyalar berib sog'lom e'tiqodni himoya qilgan.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. أبو المعين النسفي. تبصرة الأدلة. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2006.
2. أبو المعين النسفي. بحر الكلام. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2007.
3. عبد الله محمود. الماتريديّة: دراسات في الفكر الإسلامي. – عمان: دار الفتح، 2004.
4. عبد المجيد تركي. الفكر الكلامي عند الماتريديّة. – بيروت: دار الغرب الإسلامي، 1992.
5. Ҳайитметов А. Абул Муъин Насафий ва “Табсиротул адилла” асари. // “Фалсафа ва ҳуқук” журнали, 2003, №1.
6. Тошпулатов Ш. Абул Муъин Насафийнинг илмий мероси. – Тошкент: Фан, 2008.
7. Ғафуров К. Калом таълимотида раддия бериш услублари. // “Исломшунослик” журнали, 2020, №3.
8. Abdurahmonov A. Nasafiy merosi va bugungi kalom ilmi. – Samarqand: Imom Buxoriy nashriyoti, 2021.

